



# **NOYOB TURDAGI XANTAL, STROFANT, GANGITUVCHI BOZULBANG KABI DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI**

*Maxammadjonov Mansurbek Marufjon o‘g‘li*

*Jaxbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o‘g‘li*

*O‘ljaboyev Jasurbek Otobek o‘g‘li*

ulugbek.uzb90@mail.ru

**Anotatsiya:** Ma‘lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50 % dorivor o‘simliklar xon-ashyosidan tayyorlanadi. Biroq tabitiy holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli ular kamayib, yo‘qolib ketish arafasiga kelib qolgan. Ushbu maqolada noyob dorivor o‘simliklarning biologik tuzilishi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda ishlatilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xantal, chakanda, gangituvchi bozulbang, afsonak, poya, barg, gul, meva, ildiz, vitamin, moy, avitaminoz, oshlovchi moddalar, ipekakuana, efir moyi, lagoxilin, karotin, gemofiliya, flavanoidlar.

Xantal (*Sinapis juncea*) o‘simligi krestguldoshlar (Brassicaceae) oilasiga mansub. O‘simlikni asosan 2 ta turi bor qora xantal va qo‘ng‘ir xantal. Qo‘ng‘ir xantal bir yillik, bo‘yi 40-50 sm ga yetadigan o‘t o‘simlik. Poyasi tik o‘suvchi, shoxlangan, tuksiz. Barglari poyaning yuqori qismiga chiqqani sari siyraklashib, plantikasi kamroq qirqilib va bandi qisqarib boradi. Poyaning uchki qismidagi barglari butun va poyada bandsiz o‘rnashgan. Gullari shingilga o‘rnashgan to‘pgul.. Urug‘i mayda, yumaloq shaklli, och sariq yoki qo‘ng‘ir. May oyida gullaydi, mevasi iyulda pishib yetiladi.

Qo‘ng‘ir xantalning asosan urig‘i tarkibida 15% sinigrin glikozidi bo‘ladi. Sinigrin urug‘ tarkibidagi mirozin fermenti tasirida glukoza, kaliy bisulfat va allilizotrotsianatga parchalanadi. Xantal urug‘ida 1.17-2.89 % efir moyi, 23-47 % yog‘ va 26% gacha oqsil moddalar, vitaminlardan A, B, C, K mavjud. Bundan tashqari xantal tarkibida oqsillar, uglevodlar, shaker kabilar bor.

Xantal o‘simlididan tayyorlangan preparatlar yallig‘lanish xarakteriga ega bo‘lgan kasalliklarda, miozit, bronxit va bod kasalliklarida qo‘llaniladi. Xantal yog‘larni parchalaydi va oqsillarni hazm qilishini rag‘batlantiradi, shuning uchun organizmda metabolizmni yaxshilaydi. Minerallar tufayli xantal qon tomirlari va yurak faoliyatini yaxshilaydi, suyak tizimini mustahkamlaydi va tirnoq va sochlarning sog‘lig‘ini saqlaydi. Xantal mahsuloti tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar tanadan zararli xolesterolni tanadan olib chiqib ketadi.



Strafantus (Strophanthus) o'simligi kendirdoshlar (Apocynaceae) oilasiga mansub ko'p yillik liana o'simlik bo'lib, bargi tuxumsimon, sertukli, o'tkir uchli, poyada qarama-qarshi Gullari yarimta soyabonga to'plangan

Strofant o'simligining urug'iidan K-strofantozid, K-strofantine, simarin va shu kabi yurak glikozidlari ajratib olingan. Urug'i tarkibidagi glikozidlar yig'indisining miqdori 8-10 %, Kstofantozid miqdori 2-3 % bo'ladi.

Urug' tarkibida yurak glikozidlaridan tashqari 30 % yog', saponinlar va boshqa moddalar bor.

Strofant o'simligining preparatlari yurak kompensatsiyasi buzilishida, nefrit, yurak astmasi hamda ba'zi og'ir, yuqumli va boshqa kasalliklar natijasida yurak ishini qattiq buzilishi kasalliklarini davolashda ishlatiladi.



Gangituvchi bozulbang (Lagochilus inebrians) yasnotkadoshlar (Lamiaceae) oilasiga kiradigan ko'p yillik, bo'yi 20-70 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi sershox, ko'tariluvchi, asos qismi yog'ochlangan, to'rt qirrali, qattiq bezli tuklar bilan qoplangan. Gullari pushti rangli, poyada va shohlarida yarim-xalqa shaklida joylashgan. Mevasi- 4 ta yong'oqcha.

Bozulbang tarkibida vitamin K, 0.6-1.97% lagoxilin, 0.67% flavon glikozidlar, 0.068- 0.22 % efir moyi, 0.20 % staxidrin, 44-77 % askorbin kislota, 6-7 % organik kislotalar, 5-10 % karotin, 2.58-2.78 % oshlovchi va boshqa moddalar hamda kalsiy, temir tuzlari bo'ladi. Bozulbang bargi tarkibida lagoxilin, 0.03 % efir moyi, 11-14 % oshlovchi moddalar, organik kislotalar, 7-10 % karotin va 77-100 % vitamin C bor.

Bozulbangning dorivor preparatlari bachadondan, o'pkadan qon oqishini, burun qonashini va gemorroidal qon oqishini to'xtatish, gemofiliya hamda Verlgof kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, Respublikamiz sharoitida o'sadigan dorivor o'simliklarni juda xam turlari ko'p. Mahalliy aholi bunday o'simliklarning mo'jizaviy kuchi haqida oldindan bilishadi. Ular iste'mol qilinadi, ziravor sifatida ovqatlarga qo'shiladi, choy damlanadi, dori sifatida ishlatiladi, shuningdek kosmetologiya yo'nalishida ham qo'llaniladi. Kundalik turmushimizda iste'mol etiladigan meva, sabzavot, ziravorlar bilan birga dorivor o'simliklardan uy sharoitida damlama, qaynatmalar tayyorlab, turli xil kasalliklarni oldini olish mumkin. Har bir mahsulot tarkibida tabiiy minerallar, vitaminlar va biologik faol moddalar mavjud.

#### Адабиётлар:

- Губанов, И. А. Фагопирум ессулентум Моеңч (Фагопирум сагиттатум Гилиб.) - Гречиха съедобная // Москва. 2003. - Т.2. Покрытосеменные. - С. 46.
- Kargalsev Yu. V., Truskoy F. M., Grechixa, M., 1986..
- Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи.// Л. 1971.
- Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI 2023-yil 20-21-b.
- Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. // Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. // Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.

